

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**N.N.Tashatov, M.K.Onarkulov, Askarbekkizi Akbota**

Axborot xavfsizligi xavflarini tahlil qilish va baholash usullari.....7

**G.S.Uzoqova, J.N.Xo'jamberdiyeva**

Fizika ta'limida o'quv-tadqiqot faoliyatini shakllantirish tamoyillari.....12

**B.K.Abduraimova, Sh.A.Ro'zaliyev, Kayrat Dinara Kayratkizi**

Axborot xavfsizligini tekshirish usullarini tahlil qilish .....19

**N.N.Tashatov, Orazymbetova Aidana Zhando skyzy, I.N.Tojimamatov**

Ma'lumotlarni yaxlitligi buzilishi xavfining matematik modellari .....24

**Sh.A.Yuldashev, R.T.To'lanova**

Xalkogenid yurqa pardalarining mikroparametrlarini aniqlash.....30

**K.O.Rakhimov, Z.X.Mamatova, Tazhikenova Nurzhanar Kabikenkizi**

Common phishing attacks in Kazakhstan and ways to protect citizens from internet scammers .....37

**K.O.Рахимов, К.Б.Буланов, Ш.М.Ибрагимов**

Изучение эффективности инструментов с открытым исходным кодом для восстановления нетрадиционно удаленных данных .....43

**K.O.Рахимов, М.К.Онаркулов, Д.Б.Каримова**

Использование облачных технологий в анализе уязвимостей программного обеспечения .....47

**М.К.Онаркулов, Ш.А.Рузалиев, Камбар Нортилеу Сейтказиули**

Способы защиты информации от компьютерных вирусов .....52

## KIMYO

**A.B.Yulchiev, Sh.Yuldashev, I.R.Askarov**

Development of the oil base of cream-perfumed soaps with the help of blended oil compositions.....61

**M.I.Payg'amova, G'M.Ochilov**

Uglerodli xomashyolar asosida ko'mir adsorbentlar olish va ularning fizik-kimyoiv yossalari .....67

**S.A.Mamatkulova, I.R.Askarov**

Studying the flavonoid composition of the biological supplement of anice and cilorant.....72

**D.G'Xamidov, S.F.Fozilov, M.Y.Ismoilov, M.Q.To'raqulova**

Gossipol qatroni asosida olingan surkov materialining sifat ko'rsatkichlari .....76

**S.A.Mamatkulova, T.E.Usmanova, I.R.Askarov**

Determination of the amount of flavonoids in paulownia and rosmarinus plant leaves .....82

**Д.А.Мансуров, А.Х.Хайтбаев, Х.Х.Хайтбоев, Д.Г.Омонов, Ш.Ш.Тургунбоев**

Изучение биологической активности цитраля с помощью методов виртуального скрининга .....85

**З.А.Хамракулов**

Агрохимическая эффективность хлора кальций – магниевого дефолианта .....92

**A.A.Ibroximov, N.B.Ibroximova, I.J.Jalolov**Oqchangal (*Nitraria* sp) o'simligining bargi va urug'i makro va mikroelement tarkibini ICP-MS usulida o'rganish.....103**O.A.Abduhamedova, O.M.Nazarov**

Yerqalampir o'simligining makro va mikroelement tarkibini o'rganish .....111

**M.K.Saliyeva, O.E.Ziyadullayev, G.Q.Otamuxamedova**

Molekulasida geteroatom saqlagan atsetilen spirlari ishtirokida murakkab efirlar sintezi .....118

**D.T.Khasanova, I.R.Askarov, A.B.Yulchiev**

Production of yogurt on the basis of expressed wheat malt.....124



УО'К: 547.73.724.1.821.316.314.2.

**MOLEKULASIDA GETEROATOM SAQLAGAN ATSETILEN SPIRTLARI ISHTIROKIDA  
MURAKKAB EFIRLAR SINTEZI**

**СИНТЕЗ СЛОЖНЫХ ЭФИРОВ С УЧАСТИЕМ АЦЕТИЛЕНОВОГО СПИРТА,  
СОДЕРЖАЩЕГО ГЕТЕРАТОМ В СВОЕЙ МОЛЕКУЛЕ**

**SYNTHESIS OF ESTERS WITH THE PARTICIPATION OF ACETYLENE ALCOHOL  
CONTAINING A HETEROPARTICLE IN ITS MOLECULE**

Saliyeva Muyassar Kazimdjanovna<sup>1</sup> 

<sup>1</sup>Chirchiq davlat pedagogika universiteti, tayanch doktoranti,

Ziyadullayev Odiljon Egamberdiyevich<sup>2</sup> 

<sup>2</sup>O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, kimyo fanlari doktori, professor

Otamuxamedova Go'zal Qamariddinovna<sup>3</sup> 

<sup>3</sup>Chirchiq davlat pedagogika universiteti, kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Annotatsiya**

*Ilk bor molekulasida geteroatom saqlagan atsetilen spirtlari – 1-(tiofenil-2)propin-2-ol-1, 1-(3-metiltiofenil-2)propin-2-ol-1, 1-(furanil-2)propin-2-ol-1, 1-(piridinil-3)propin-2-ol-1, 1-(xinolinil-2)propin-2-ol-1, 1-(3-brompiridinil-4)propin-2-ol-1 ning benzol eritmasida konsentrangan  $H_2SO_4$  katalizatori ishtirokida benzoy kislotasi bilan eterifikatsiya reaksiysi bo'yicha mos ravishdagi murakkab efirlar- 1-(tiofenil-2)propinil benzoat, 1-(3-metiltiofenil-2)propinil-2 benzoat, 1-(furanil-2)propinil-2 benzoat, 1-(piridinil-3)propinil-2 benzoat, 1-(xinolinil-2)propinil-2 benzoat, 1-(3-brompiridinil-4)propinil-2 benzoat sintezi jarayoni amalgalashirilgan. Mahsulot unumiga ta'sir qiluvchi bir qator omillar – harorat, reaksiya davomiyligi, katalizator va erituvchilar, substrat va reagentlar miqdori ta'siri tadqiq qilingan va reaksiya mexanizmlari ishlab chiqilgan. Olingan natijalar asosida jarayonlar uchun eng muqobil sharoitlar topilgan. Sintez qilingan murakkab efirlarining tarkibi, tozaligi, tuzilishi va kvant-kimyoviy xossalari- IQ-,  $^1H$ -YaMR,  $^{13}C$ -YaMR spektroskopiyasi, mass spektrometriya, xromatografiya kabi zamondaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida isbotlandi. Sintez qilingan murakkab efirlarining unumining samaradorlik qatorlari aniqlangan. Biologik xossalai o'rganilgan.*

**Аннотация**

*Первые ацетиленовые спирты, содержащие гетероатом в молекуле- 1-(тиофенил-2)-пропин-2-ол-1, 1-(3-метилтиофенил-2)-пропин-2-ол-1, 1(фуранил-2)-пропин-2-ол-1, 1-(пиридинил-3)-пропин-2-ол-1, 1-(хинолинил-2)-пропин-2-ол-1, 1-(3-бромпиридинил-4)-пропин-2-ол-1 в бензольном растворе в присутствии концентрированного катализатора  $H_2SO_4$  в реакции этерификации бензойной кислотой осуществлен процесс синтеза сложных эфиров- 1-(тиофенил-2)-пропинил бензоат, 1-(3-метилтиофенил-2)-пропинил-2 бензоат, 1-(фуранил-2)-пропинил-2 бензоат, 1-(пиридинил-3)-пропинил-2 бензоат, 1-(хинолинил-2)-пропинил-2 бензоат, 1-(3-бромпиридинил-4)-пропинил-2. Изучен ряд факторов, влияющих на выход продукта - температура, продолжительность реакции, влияние количества катализатора и растворителей, субстрата и реагентов и разработаны механизмы реакции. На основе полученных результатов были найдены наиболее оптимальные условия протекания процессов. Состав, чистота, строение и квантово-химические свойства синтезированных сложных эфиров подтверждены современными физико-химическими методами таких как ИК-,  $^1H$ -ЯМР,  $^{13}C$ -ЯМР-спектроскопия, масс-спектрометрия, хроматография. Определен ряд эффективности синтезированных сложных эфиров и зучен биологический свойство.*

**Abstract**

*The first acetylene alcohols containing a heteroatom in the molecule - 1-(thiophen-2-yl)prop-2-yn-1-ol, 1-(3-methylthiophen-2-yl)propyn-2-ol-1, 1(furanyl-2)propyn-2-ol-1, 1-(pyridinyl-3)propin-2-ol-1, 1-(quinolinyl-2)propin-2-ol-1, 1-(3-bromopyridinyl-4)propin-2-ol-1 in a benzene solution in the presence of a concentrated catalyst  $H_2SO_4$  in the esterification reaction with benzoic acid, the process of synthesis of esters- 1-(thiophenyl-2)propynyl benzoate, 1-(3-methylthiophenyl-2)propynyl-2 benzoate, 1-(furanyl-2)propynyl-2 benzoate, 1-(pyridinyl-3)propynyl-2 benzoate, 1-(quinolinyl-2)propynyl-2 benzoate, 1-(3-bromopyridinyl-4)propynyl-2 was carried out. A number of factors influencing the yield of the product have been studied - temperature, reaction duration, influence of the amount of catalyst and solvents, substrate and reagents. Based on the results obtained, the most optimal conditions for the processes were found. The composition, purity, structure and quantum chemical properties of the synthesized esters were confirmed by modern*

## KIMYO

*physicochemical methods- IR, <sup>1</sup>H-NMR, <sup>13</sup>C-NMR spectroscopy, mass spectrometry, chromatography. The efficiency range of the synthesized esters has been determined. Biological properties have been studied.*

**Kalit so'zlar:** atsetilen spirtlar, murakkab efirlar, benzoy kislota, etirifikatsiya reaksiyasi, reaksiya mexanizmi, mahsulot unumi.

**Ключевые слова:** ацетиленовые спирты, сложные эфиры, бензойная кислота, реакция этерификации, механизм реакции, выход продукта.

**Key words:** acetylene alcohols, slojnye ethers, benzoic acid, etherification reaction, mechanism reaction, output product.

## KIRISH


Bizga ma'lumki, atsetilen spirtlarining to'yinmagan efirlari organik kimyoda tadqiqot obyekti bo'lib kelgan va olimlar tomonidan atsetilen spirti va to'yinmagan kislotalar (malein, krotonik, sorbin, akril va metakril) birikmalari asosida o'rganilgan [1-2]. Murakkab efirlarning hosil bo'lishi atsetilen spirtlarining molekulasida turli xil tabiatga ega o'rinnbosarlar va uchbog'dan tashqari gidrosil guruhida harakatchan faol vodorodning borligi, ularning kimyoviy o'zgarishlari uchun xilma-xillik beradi va murakkab efirlarning hosil bo'lishiga asos bo'ladi [3-4]. Jumladan, ularning karbon kislotalar bilan eterifikatsiya reaksiyasini keltirish mumkin.


## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Molekulasida geteroatom saqlagan atsetilen spirtlari ishtirokida sintez qilingan murakkab efirlar o'zinng biologik xususiyati kengligi bilan adabiyot manbalarida keltirilgan [5-6]. Etrifikatsiya reaksiyasi natjasida sintez qilingan atsetilen spirtlarining murakkab efirlari neft va neft kimyosi sohasida korroziyaga qarshi ingibitorlar sifatida ishlatiladi va tadbiq etiladi [7]. Shuningdek, tarkibida azot saqlagan 5 a'zoli geteroarom spirtlar ishtirokida 85,2% unum bilan 4-(piperidinil-1)butinil-2-benzoat va 80,0% unum bilan 4-morfolinobutinil-2-benzoat efirlari sintez qilingan va parkinson kabi kasallikkarda qo'llanilgan [8]. Din-Stark apparati yordamida, H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> katalizatori ishtirokida karbon kislotalarning spirtlar bilan reaksiyasi natjasida murakkab efirlar sintez qilingan va sintez qilingan mahsulot din-stark apparati yordamida ajratilgan [9]. Mitsudo va Dixneuf tomonidan ruteniy katalizatori ishtirokida alkinlarga karbosiklik kislotalarni biriktirish natjasida efirlar sintez qilingan [10-12]. MeNO<sub>2</sub>-H<sub>2</sub>O- Skandiy va lantan katalizatori ishtirokida propargil spirtlarining eterifikatsiya reaksiyasi ishtirokida propargil efirlari yuqori unum bilan sintez qilingan [13-14]. Benzol eritmasida konsentrangan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> katalizatori ishtirokida atsetilen spirtlarining turli xil tabiatga ega bo'lgan benzoy, kapron, akril va nikotin kislotalari bilan eterifikatsiya reaksiyasi bo'yicha mos ravishdagi murakkab efirlar sintezi jarayoni o'rganilgan va yuqori samaradorlikka erishilgan [15-17].

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu ishda molekulasida geteroatom saqlagan atsetilen spirtlarining benzol eritmasida konsentrangan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> katalizatori ishtirokida benzoy kislotasi bilan eterifikatsiya reaksiyasi bo'yicha mos ravishdagi murakkab efirlar sintezi jarayoni amalga oshirilgan. Reaksiya sxemasi adabiyot manbalarini asosida quyidagicha taklif etildi [18].





Eterifikatsiya reaksiysi qaytar jarayon bo'lib, jarayonning borishiga boshlang'ich moddalar tabiatи va tarkibi, harorat, reaksiya davomiyligi, katalizator va erituvchi tabiatining ta'siri tizimli ravishda tadqiq qilindi. Dastlab atsetilen spirtlarining murakkab efirlari unumiga reaksiya davomiyligi va harorat ta'siri o'rGANildi. Eterifikatsiya reaksiya davomiyligi 4÷10 soat interval oralig'ida, harorat 40÷110 °C oralig'ida, benzol eritmasida olib borildi (1-Jadval). Jarayon dastlab 4 soatda olib borilganda boshlang'ich moddalar molekula va ionlarning to'liq to'qnashuvi uchun yetarli vaqt bo'limganligi sababli mahsulot unumi past chiqqanligi aniqlandi. Eterifikatsiya reaksiya davomiyligi 6 soatda olib borilganda qo'shimcha mahsulotlar kam miqdorda hosil bo'lishi, sintez qilinayotgan murakkab efirlarning polimerlanishi va boshlang'ich moddalarga kam aylanishi aniqlandi. Bundan tashqari reaksiyada ishlatilgan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> katalizatori protonlari karbon kislotalar karbonil guruhiya birikdi va karbonil guruhi bilan bog'langan uglerod atomidagi musbat zaryad qiymatini oshirdi. Bu esa spirtning C- nukleofil hujumini yengillashtirdi. Ammo jarayon 10 soatda olib borilganda asosiy mahsulot unumdorligi pasayganligi, qo'shimcha mahsulotlar ko'p miqdorda hosil bo'lishi, sintez qilinayotgan murakkab efirlarning polimerlanishi sababli jarayon selektivligining kamayishiga olib keldi.

### 1 - jadval

**Murakkab efirlar unumiga reaksiya davomiyligi va harorat ta'siri  
(boshlang'ich moddalar mol miqdori spirt:kislota 1:3 nisbatda)**

Harorat, 0 °C	Reaksiya davomiyligi, soat	Mahsulot unumi, %					
		1	2	3	4	5	6
40	4	40	45	70	55	50	62
	6	50	55	76	62	58	70
	10	46	51	72	60	55	66
80	4	51	55	78	63	60	70
	6	59	64	86	72	68	78
	10	55	60	82	67	64	74


## KIMYO

110	4	46	50	74	60	55	66
	6	55	60	82	67	64	74
	10	51	56	78	63	61	70

Atsetilen spirtlarining murakkab efirlari unumiga harorat ta'siri o'rganildi. Jarayon 40-110 °C haroratlarda olib borildi. Jarayon 80 °C haroratda olib borilganda, katalizator ( $H_2SO_4$ ) jarayonni tezlashtirib, dastlab karbonil guruhidagi kislrorod atomini protonlab stabillangan spirtlar bilan oson reaksiyaga kirisha oladigan oraliq karbokation hosil qilishi natijasida mahsulot unumi yuqori chiqishi uchun qulay muhit yaratdi. Ammo haroratning 110 °C ga oshirilishi bilan reaksiya yo'nalishining o'zgarib ketishi, murakkab efirlarning qaytadan boshlang'ich moddalarga aylanishi yoki atsetilen spirtining degidratlanishidan efirlar, qisman yeninlarga aylanishi mahsulot unumiga salbiy ta'sir etishi kuzatildi [19-20].

Atsetilen spirtlariining karbon kislotalar bilan reaksiyasini boshlang'ich moddalar mol miqdori (spirt: kislota) 3:1 nisbatda, reaksiya davomiyligi 6 soat, harorat 80 °C, katalizator  $H_2SO_4$ , erituvchi benzoldan foydalanilganda atsetilen spirtlari— 1-(tiofenil-2)propin-2-ol-1, 1-(3-metiltiofenil-2)propin-2-ol-1, 1-(furanyl-2)propin-2-ol-1, 1-(piridinil-3)propin-2-ol-1, 1-(xinolinil-2)propin-2-ol-1, 1-(3-brompiridinil-4)propin-2-ol-1dan mos ravishdagi murakkab efirlari— 1- 1-(tiofenil-2)propinil benzoat, 2- 1-(3-metiltiofenil-2)propinil-2 benzoat, 3- 1-(furanyl-2)propinil-2 benzoat, 4- 1-(piridinil-3)propinil-2 benzoat, 5- 1-(xinolinil-2)propinil-2 benzoat, 6-1-(3-brompiridinil-4)propinil-2 benzoat yuqori unum bilan sintez qilindi.

Tadqiqotlar asosida atsetilen spirtlari murakkab efirlari unumiga boshlang'ich moddalar miqdori mol nisbatlarda ta'siri o'rganildi (2-Rasm). Bunda tadqiqotlar 0,3 mol atsetilen spirti va karbon kislotalardan 0,5:0,1:0,3: mol miqdorlarda olindi. Erituvchi benzol miqdori ham dastlabki moddalar hajmi o'zgarishi bilan o'zgartirilib, reaksiyon aralashmaning umumiy hajmi barcha reaksiyalarda bir xilda saqlandi.



**1-Rasm. Atsetilen spirtlari murakkab efirlar unumiga boshlang'ich moddalar mol nisbati ta'siri (harorat 80 °C, reaksiya davomiyligi 6 soat)**

Jarayonda 0,3 mol atsetilen spirti va karbon kislota 0,1 mol miqdorlarda olinganda, sistemadagi kation va anionlar to'qnashuvlar soni maksimum o'tishi aniqlandi va yuqori unum bilan atsetilen spirtlarining murakkab efirlari sintez qilindi.

Jarayonda atsetilen spirtining benzoy kislota bilan reaksiyasiga katalizatorning ta'siri tadqiq qilindi. Reaksiya  $H_2SO_4$  katalizatori ishtirokida olib borildi.  $H_2SO_4$  suvni tortib oluvchi katalizator sifatida ishlatalib,  $H_2SO_4$  katalizatori protonlari karbon kislotalar karbonil guruhiga birikadi va karbonil guruhi bilan bog'langan uglerod atomidagi musbat zaryad qiymatini oshiradi va atsetilen spirtining nukleofil hujumini yengillashtiradi. [21].

Jarayon uchun tanlangan sulfat kislotaning miqdori atsetilen spirti massasiga nisbatan 10; 25 va 40% nisbatda olindi (2-Jadval).

**Mahsulot unumiga katalizator miqdori ta'siri (erituvchi benzol, harorat  
80 °C, reaksiya davomiyligi 6 soat)**

Katalizator miqdori, AS massasiga nisbatan, %	Atsetilen spirtlari murakkab efirlari, %					
	1	2	3	4	5	6
10	49	56	78	62	60	68
25	59	64	86	72	68	78
40	57	63	84	70	67	76

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, atsetilen spirti murakkab efirlari katalizator 25% olinganida  $H_2SO_4$  katalizator protonlari karbon kislotalar karbonil guruhiga birikadi va karbonil guruh bilan bog'langan uglerod atomidagi musbat zaryad qiyamatini oshiradi va atsetilen spirtining nukleofil hujumini yengillashtirib, tanlangan spirtlarning murakkab efirlari mos ravishda eng yuqori 1- 59%, 2- 64%, 3- 86%, 4- 72%, 5- 68%, 6- 78% unum bilan sintez qilindi.

Sintez qilingan atsetilen spirtlari murakkab efirlarining kvant-kimyoviy ko'rsatkichlari molekulaning umumi energiyasi, boshlang'ich energiyasi issiqlik energiyasi, elektron energiyasi, yadro energiyasi, dipol momenti HyperChem Activation 7,0 paketi STAT dasturining yarim emperik usuli bo'yicha aniqlandi (3-Jadval).

## 3- jadval

**Atsetilen spirtlari murakkab efirlarining  
kvant-kimyoviy ko'rsatkichlari**

Murakkab efirlar	Umumi energiyasi, kkal/mol	Hosil bo'lish energiyasi, kkal/mol	Issiqlik energiyasi kkal/mol	Elektron energiyasi, kkal/mol	Yadro energiyasi, kkal/mol	Dipol momenti (D)	Kislorod atomi zaryadi
1	-59559,6	-3058,1	40,82	-362586,9	303027,3	3,980	-0,232
2	-63012,7	-3342,6	31,45	-407183,2	344171,0	4,341	-0,227
3	-62032,3	-3089,0	3,154	-370569,0	308536,6	4,099	-0,232
4	-62103,3	-3331,2	37,36	-393406,2	331302,9	4,199	-0,235
5	-73736,2	-4100,8	55,48	-514774,4	441038,0	3,331	-0,238
6	-69897,1	-3296,6	46,61	-439003,9	369106,7	4,370	-0,239

**XULOSA**

Ilk bor molekulasida geteroatom saqlagan atsetilen spirtlari – 1-(tiofenil-2)propin-2-ol-1, 1-(3-metiltiofenil-2)propin-2-ol-1, 1-(furanil-2)propin-2-ol-1, 1-(piridinil-3)propin-2-ol-1, 1-(xinolinil-2)propin-2-ol-1, 1-(3-brompiridinil-4)propin-2-ol-1 ning benzol eritmasida konsentrangan  $H_2SO_4$  katalizatori ishtirokida benzoy kislotosi bilan eterifikatsiya reaksiyasini bo'yicha mos ravishdagi murakkab efirlar- 1-(tiofenil-2)propinil benzoat- 59%, 1-(3-metiltiofenil-2)propinil-2 benzoat- 64%, 1-(furanil-2)propinil-2 benzoat- 86%, 1-(piridinil-3)propinil-2 benzoat- 72%, 1-(xinolinil-2)propinil-2 benzoat- 68%, 1-(3-brompiridinil-4)propinil-2 benzoat-78% yuqori unum bilan sintezi jarayoni amalga oshirilgan.

Atsetilen spirtlari murakkab efirlarining hosil bo'lish unumining oshishiga muvofiq reaksiya jarayonining eng muqobil sharoiti topildi, jumladan harorat 80 °C, reaksiya davomiyligi 6 soat, atsetilen spirti: benzoy kislota mol miqdori 3:1 nisbatlarda,  $H_2SO_4$  katalizatori atsetilen spirti massasiga nisbatan 25% olinganda mahsulot unumi maksimum chiqishi aniqlandi.

Atsetilen spirti tarkibidagi geteroatom element saqlagan o'rinnbosarlar tabiatini, ularning fazoviy joylashuvi va ta'sir etish xususiyatiga ko'ra etirifikatsiya reaksiyasini natijasida sintez qilingan murakkab efirlar samaradorlik qatori quyidagicha 1-(tiofenil-2) propinil benzoat < 1-(3-metiltiofenil-

## KIMYO

2) propinil-2 benzoat < 1-(xinolinil-2) propinil-2 benzoat < 1-(piridinil-3) propinil-2 benzoat < 1-(3-brompiridinil-4) propinil-2 benzoat < 1-(furanyl-2) propinil-2 benzoat ortib borishi aniqlandi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G.F.D'aleluo, R.C.Evers Linear polymers of acrylic monomers containing a acetylenic moiety.J.Polym. Sci., 1967, part A-I, v. 5, p. 818-832.
2. G.F.D'aleluo, R.C.Evers Linear polymers of some vinyl monomers containing atrminal acetylenic group. J.Polym. Sci., 1967, part A-I, Voluemu. 5, p. 999-1014.
3. Boytemirov O.E., Ziyadullaev O.E., Abdurakhmanova S.S., Samatov S.B., Ikramov A., Qo'shbaqov F.Z. Synthesis of vinyl ethers of some acetylene alcohols // VI North Caucasus organic chemistry symposium, 2022, Ставрополь, с. 154.
4. Ziyadullayev O.E. Fenilatsetilen va metilizopropilketon asosida neft va neft mahsulotlari mikroorganizmlarga qarshi antikorrozion bioingbitor sintezi // Kimyo va kimyo texnologiyasi, 2012, № 3. – 32-43 б.
5. Караев С.Ф., Гараева Ш.В. Пропаргиловые эфиры. Успехи химии, 1980, т. 49, вып. 9, -С. 1775-1800.
6. Иванов Е.С. Ацетиленовые эфиры - эффективные ингибиторы коррозии стали. Тезисы докладов VI Всесоюзный научной конференции по химии ацетиlena. Баку, изд-во Азинефтехим. 1979, -С. 19.
7. М. Г. Велиев, О. А. Садыгов, Н.А. Мамедова, С.А. Мустафаев Этирификация ацетиленовыми спиртами нефтяных нафтеновых кислот // Нефтехимия, 2009, том 49, № 3, с 247-252.
8. М. А. Дюсебаева, С.Н. Калугин, Ш.С. Ахмедова Синтез эфиров на основе ненасыщенных спиртов гетероциклического ряда // Серия химии и технологии 2015 Volume 5, № 413, с 149-153.
9. Otera J, Nishikido J. Esterification: Methods, Reactions, and Applications, 2nd ed. Weinheim, Germany: Wiley-VCH Verlag GmbH & Co. KGaA; 2009. DOI: 10.1002/9783527627622
10. Hirose D, Gazvoda M, Kosmrlj J, Taniguchi T. Advances and mechanistic insight on the catalytic Mitsunobu reaction using recyclable azo reagents. // Chemical Science. 2016; Volume 9, Issue 7, pp. 5148-5159.
11. Hirose D, Taniguchi T, Ishibashi H. Recyclable Mitsunobu reagents: Catalytic Mitsunobu reactions with an iron catalyst and atmospheric oxygen. // Angewandte Chemie, International Edition. 2013, Volume 4, Issue 52, :pp. 4613-4617.
12. Mitsudo T, Hori Y, Yamakawa Y, Watanabe Y. Ruthenium-catalyzed selective addition of carboxylic acids to alkynes. A novel synthesis of enol esters. The Journal of Organic Chemistry. 2017; Volume 9, Issue 52, pp. 2230-2239.
13. Katsuki Ohta, Eri Koketsu, Yuya Nagase, Nami Takahashi, Hiroyasu Watanabe, Mitsuhiro Yoshimatsu Lewis Acid-Catalyzed Propargylic Etherification and Sulfanylation from Alcohols in MeNO<sub>2</sub>-H<sub>2</sub>O // Chemical and Pharmaceutical Bulletin 2011, Volume 7, Issue 59(9) pp. 1133—1140.
14. Francis Mariaraj Irudayanathan, Jimin Kim, Kwang Ho Song, Sunwoo Lee Transition-Metal-Free Decarboxylative Coupling Reactions for the Synthesis of Propargyl Alcohols // Asian Journal of Organic Chemistry, 2016, Volume 5, pp. 1148-1154.
15. Samatov S. B. Benzaldegidning turli hosilalarini alkinillash asosida atsetilen spirlari sintezi // kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi 100-107 b.
16. Зиядуллаев О.Э., Икрамов А.И., Нурманов С.Э., Мирхамитова Д.Х., Мавлоний М.Э. Реакции ароматических ацетиленовых спиртов с некоторыми ненасыщенными карбоновыми кислотами // II-nd International Kazakhstan-Russian Conference on Chemistry and Chemical Engineering. – Karaganda: Kazakhstan, 2012. Vol. 1. – Р. 377-380.
17. Boytemirov O.E., Ziyadullaev O.E., Abdurakhmanova S.S., Samatov S.B., Ikramov A., Qo'shbaqov F.Z. Synthesis of vinyl ethers of some acetylene alcohols // VI North Caucasus organic chemistry symposium, 2022, Ставропол, с. 154.
18. Ziyadullayev O.E., Jo'rayev O.E., Mirxamitova D.X. Ketonlar asosida neft mikroorganizmlarga qarshi ingbitorlar yaratish va ularni sintez qilish texnologiyasi // Kimyo va kimyo texnologiyasi, 2012, № 4. – 45-47 б.
19. Boytemirov O.E., Ziyadullaev O.E., Abdurakhmanova S.S., Samatov S.B., Ikramov A., Qo'shbaqov F.Z. Synthesis of vinyl ethers of some acetylene alcohols // VI North Caucasus organic chemistry symposium, 2022, Ставропол, с. 154.
20. Абдурахманова С.С., Зиядуллаев О.Э., Отамухамедова Г.Қ., Тиркашева С.И., Саматов С.Б. Юқори асосли каталитик система ёрдамида нефт саноати биокоррозисига қарши ингибиторлар синтези // Республиканской научно-технической конференции "Инновационные разработки в сфере науки, образования и производства-основа инвестиционной привлекательности нефтегазовой отрасли", Ташкент, 2019. – С. 323-328.
21. Зиядуллаев О.Э., Икрамов А.И., Нурманов С.Э., Мирхамитова Д.Х., Мавлоний М.Э. Реакции ароматических ацетиленовых спиртов с некоторыми ненасыщенными карбоновыми кислотами // II-nd International Kazakhstan-Russian Conference on Chemistry and Chemical Engineering. – Karaganda: Kazakhstan, 2012. Vol. 1. – Р. 377-380.